
18 NOYABR – O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BAYROG‘I QABUL QILINGAN KUN

Ushbu sana munosabati bilan Toshloq tumanida “Bayrog‘imiz – faxrimiz, g‘ururimiz” shiori ostida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi. Tadbirda so‘zga chiqqan tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev bayrog‘imiz jonajon o‘lkamiz dunyoda xalqaro hamjamiyatning tenglar ichra teng a‘zosi ekanligini anglatishi hamda hech kimdan kam emasligimiz va aslo kam bo‘lmasligimizni yaqqol namoyon etishini, bayrog‘imiz bizning g‘urur, iftixorimiz ekanligini ta’kidlab o‘tdi. Yoshlar ishtirokida Vatanni, istiqlolni madh etuvchi kuy va qo‘shiqlar sadosi ostida bayram tadbiri ko‘tarinki ruhda o‘tdi.

2022-11-18 14:07:11